



## MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20- Noyabr 2021  
Ma'qullandi: 25- Noyabr 2021  
Chop etildi: 30 - Noyabr 2021

## KALIT SO'ZLAR

*tibbiy lingvistika,*  
*integratsiya,*  
*paremeologik birliklar,*  
*tibbiy frazemalar, tibbiy*  
*maqollar, tibbiy*  
*hikmatlar, tibbiy*  
*rivoyatlar,*

Milliy qadriyatimiz timsoli ona tilimizni asrab-avaylash, davlat tili sifatidagi nufuzini yanada oshirish hozir har qachongidan ko'ra dolzarb bo'lib, tilimizning milliy tabiati, taraqqiyot qonunlarini chuqurroq o'rganish va ilmiy tadqiqini yangi bosqichlarda davom ettirish zaruriyatini belgilaydi. Zotan, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi".[Mirziyoyev,2019:1]

## TABOBATDA DAVO BILAN BOG'LIQ TIBBIY PAREMEOLOGIK BIRLIKLARNING XUSUSIYATLARI

**Islomova Shahnoza Iskandar qizi**

Buxoro davlat universiteti lingvistika(o'zbek tili) magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5752728>

## ANNOTATSIYA

*Maqolada tibbiyot va til integratsiyasi, tabobatda tibbiy paremeologik birliklarning o'rni, tibbiy paremeologik birliklarning tibbiy nutqqa xoslanishi, paremeologik birliklarning tibbiy matnlarda voqealanishi xususida so'z yuritiladi*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084 farmoniga ko'ra 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi ham qabul qilindi va unda til takomiliga xizmat qiluvchi qator vazifalar belgilandi. Ya'ni, zamonaviy,yangi avlod o'quv lug'atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini va sohalar bo'yicha atamalar lug'atini yaratish; barcha oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichida "Kasbiy nutq madaniyati" fanini joriy qilish; mamlakat hayotining barcha sohalarida,jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va inovatsion texnologiyalar,sanoat, bank-moliya



tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish; ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni muntazam ravishda rasmiy muomalaga kiritib borish kabi o'zbek tilini bor boyligi bilan saqlashga qaratilgan amaliy ishlarga keng yo'l ochib berildi.

Bugungi kunda ko'plab fanlar qatori tibbiyot va til integratsiyaga kirishuvi natijasida tibbiy lingvistika fani shakllandi va rivojlanib bormoqda. Tibbiy lingvistika sohasida juda ko'plab ilmiy yutuqlarga erishildi: tibbiy terminologik lug'atlar, tibbiy qomusiy lug'atlar, tibbiy o'quv lug'atlari yaratildi, tibbiy evfimik birliklar, tibbiy perifrazalar, tibbiy metaforalar, tibbiy reklama tili o'rganildi. Bu shifokor va bemorlarga axbarot uzatish va qabul qilish uchun madaniy nutq sharoitini yaratish imkonini berdi.

Xalq tilida "Eng yaxshi davo- shirin so'zdir" degan hikmat uchraydi. Ibn Sino ta'kidlaganidek, bemorni, avvalo so'z bilan davolamoq zarur, uning ruhini davolagan keyin tanasini davolash lozim. Shu o'rinda bizga tibbiy paremeologik birliklar yordamga keladi.

**Paremiologiya** (**yunoncha**: paroimia — hikmatli so'z, zarbulmasal va ... logiya) - ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni - paremalarni o'rganadigan fan sohasi; muayyan tilda mavjud bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar -paremalar tizimi. [O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil]

Xalq tabobatida kasallik, sog'lik, bemorlik, shifo bilan bog'liq tibbiy paremeologik birliklar, tibbiy frazeologik birliklar mavjud. Taniqli folklorshunos olim B. Sarimsoqov tibbiy paremeologik birliklarni "ruhiy terepiya" sifatida baholaydi.

Tibbiyot qadim zamonlardan to hozirgi kunga qadar maxsus(xos til) tilga ega. Ammo, tibbiyotda shunday birliklar borki, ular shifokorlar nutqini bezab, bemorlarning shifo topishi uchun birinchi ruhiy yordam vazifasini o'taydi. Bunday birliklarga tibbiy perefrazalar, tibbiy frazemalar, tibbiy metaforalar, tibbiy evfimik birliklarni kiritishimiz mumkin. **TOZALIK, SOG'LIK VA BEMORLIK HAQIDA MAQOLLAR**  
Bedard yonida gapirsang, boshi og'rir.

Bir kunlik isitma  
Qirq kunlik kuchni olar.

Boylikning boshi — sog'liq.

Bola sog'ligi — ona boyligi.  
Bosh armoni bo'lmasa,  
Mol armoai armonmas.  
Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar.  
Bosh rohati — tan rohati.  
Dard botmonlab kelar,  
Misqollab chiqar.  
Dard keldi, darmon ketdi.  
Dard filni pashshadek qilar.  
Jon qaqshag'i jahonga sig'mas.  
Joni og'rigan tangrisini qarg'ar...

Xalq ming yillik tajribalari asosida "dard" va u bilan bog'liq tushunchalarga ayri-ayri nigoz bilan qaragan. U bilan bog'liq maqollar, qo'shiqlar, matallar ham yaratilgan. Dardni, balolarni daf qilishda so'zga, uning kuchiga ishonishgan. Masalan: Bedardning yonida gapirsang, boshi og'rir.

Dard botmonlab kelar,  
misqollab chiqar.

Dard filni pashshadek qilar.



Terlama tez o'ldirar, bola-  
chaqani g'amga to'ldirar.

Sog'lik har qanday xalqning eng qadimiy qadriyatlaridan biri bo'lib, insoniyat tabiiy mavjudot sifatida doimo sog' yurishga intiladi. A.P.Chexov aytganlaridek, "...seni sog'ayishingni bayramdek kutayotgan kishilarning borligi bilaganingda, hatto kasal bo'lish ham yoqimlidir"

Birgina "kasal" leksemasini-  
kasal, betob, nosog', bemor,  
shikasta, xasta, dardmand, dardchil... kabi  
so'zlar bilan bir qatorda, "mazzasi

qochmoq", "badanidan o'tib ketmoq",  
"tutday to'kilmoq", "boshi yostiqa  
yetganda", "ko'z oldi qorong'ulashmoq"  
kabi tibbiy frazeologik birliklar bilan  
ham ifodalash mumkin.

Tibbiy lingvistika sohasida qilinayotgan ishlar o'z samarasini bermasdan qolmaydi, tibbiy platformani yaratish borasidagi ishlar o'z amaliy ahamiyatiga egadir. Tibbiy lingvistika sohasida bajarilayotgan ishlar nafaqat shifokorlar, tilshunoslar, balki xalq uchun ahamiyatlidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan marosimdagi nutqi//<https://xs.uz/uz/post/prezidentshavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottizjilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/docs/-4561730>
3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. Elektron kitob. 3jildli saylanma. 1-jild.-58 b.
4. Abdukarim Usmonxo'jayev. Eng yaxshi davo. Toshkent: O'zbekiston, 2006.-47b.
5. Abuzalova M., G'aybullayeva N. (2021) Peculiarities Of The Integration Of Linguistics And Medicine. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. Volume 27, Issue 1, Pages 828-832. <https://cibg.org.au/article 7795.html>.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frzeologik lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1978.-408b.